
Sektor rahbarlari 15 ta muammoli masalani hal qilishda yordam berishdi

✎ A'nanaga ko'ra har payshanba kuni tuman hokimi va sektor rahbarlari tomonidan aholi muammolarini o'rganish va ularni hal etish yuzasidan navbatdagi qabul o'tkazildi.

✎ Xalq qabulxonasida bo'lib o'tgan qabulga 38 nafar fuqaro o'z muammolari bilan ishtirok etishdi.

✎ Fuqarolar asosan uy-joy, moddiy yordam olish, sog'ligini tiklash uchun yo'llanma ajratish va tadbirkorlikni yo'lga qo'yish masalalari bo'yicha sektor rahbarlariga murojaat qilishdi.

✎ Qabul jarayonida fuqarolarning 15 ta murojaatlari hal etilib, qolganlariga huquqiy tushunchalar berildi.

✎ Shuningdek, qolgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tashkilot va korxonalarining mutasaddi rahbarlariga topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

2022-08-18 15:03:53